

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-122</u>
	Sana: "№ <u>22</u> <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining
2025-yil 21 - oktabr dagi
21-10/1 -sonli yig'ilish bayonnomasiga
36 -ilova

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATI
XODIMLARINING ODOB-AHLOQ
QOIDALARI**

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining odob-ahloq qoidalarini" (keyingi o'rinlarda Odob-ahloq qoidalarini deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlariga va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlariga hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Odob-ahloq qoidalarini "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) xodimlarining kasbiy odob-axloqining umumiy tamoyillarini va o'z xizmat vazifasini bajarishdagi xulq-atvorining asosiy qoidalarini belgilab beradi.

2. Odob-ahloq qoidalarini huquqbuzarlikning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga, xodimlarni yuksak huquqiy ong, amaldagi qonun hujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga hamda Bankning korporativ madaniyatini shakllantirishga, Bank imidji va obro'sini saqlash va yuksaltirishga yo'naltirilgan.

3. Mazkur Odob-ahloq qoidalarini Bank missiyasi va korporativ qadriyatlarini mustahkamlashni, Bank xodimlarining Bank mijozlari, kontragentlari, aksiyador va hamkasblari oldidagi shaxsiy mas'uliyatlarini va rollarini anglashini ta'minlashni o'z oldiga vazifa qilib olgan.

4. Bankka ishga qabul qilinadigan barcha shaxslar mazkur Odob-ahloq qoidalarini bilan tanishtiriladi va ushbu Odob-ahloq qoidalarini talablariga rioya etishlari shart.

Bank xodimlari o'z faoliyatini odob-ahloq normalari asosida olib borishi hamda mas'uliyatni his qilgan holda jonkuyarlik va sodiqlikni namoyon qilgan holda amalga oshirishlari lozim.

5. Ushbu Odob-ahloq qoidalarida belgilangan talab va qoidalar Bankning boshqaruv organlari a'zolari va egallab turgan lavozimlari darajasidan qat'iy nazar Bankning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi. Shuningdek, Bank bilan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida hamkorlik qiladigan jismoniy shaxslarga ham qo'llaniladi.

Odob-ahloq qoidalariga rioya etish Bank xodimlarining kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baholashning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

2-bob. Asosiy tamoyillar, bank missiyasi va qadriyatlari

6. Bank xodimlari o'z kasbiy faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirishlari kerak:



qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

adolatlilik, halollik va xolislik;

ochiqlik va shaffoflik;

vatanparvarlik, fidoiylik va sodiqlik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;



manfaatlar to'qnashuviga hamda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik;
Bank imidji va obro'sini saqlash va yuksaltirish;
shaxsiy mas'uliyat va javobgarlilik.

7. Bankning missiyasi mijozlarning mablag'lari uchun ochiq va qulay raqamli platformani yaratish. Mijozlarga istalgan vaqtda dunyoning istalgan nuqtasida sifatli bank xizmatlarini ko'rsatilishiga zamin yaratish.

Bank va moliyaviy xizmatlar ko'rsatish sohasida peshqadam bo'lishga, faoliyat yuritish uslubini zamonaviylashtirish (takomillashtirish)ga, yakdil professional jamoyani shakllantirishga intilish orqali manfaaddor bo'lish.

8. Bank biznes yuritishda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga amal qiladi va o'z faoliyatini samaradorlik va biznes sifatining xalqaro standartlariga muvofiqligini ta'minlaydi.

9. Bankning o'z faoliyatida amal qiladigan asosiy qadriyatlar:
mijozlar, kontragentlar va jamoat ishonchi;
sifatli moliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali o'z mavqeiga ega bo'lish;
profesional va yakdil jamoa;
ochiqlik, yangilik va tezkorlik.

3-bob. Bank xodimlarining o'zini tutish qoidalari

10. Bank xodimlari o'z xizmat faoliyati jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qilishi lozim:

o'z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;

yuqori mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini (topshiriqlarini) o'z vaqtida va sifatli bajarish;

o'z faoliyatini amaldagi qonun hujjatlari va Bankning ichki qoidalari va boshqa hujjatlari doirasida hamda lavozim yo'riqnomalari doirasida amalga oshirish;



o'z xizmat vazifalarini bajarishda biror-bir shaxslar, guruhlar yoki tashkilotlarga yon bosmaslik va ustunlik bermaslik, ularning ta'siridan mustaqil bo'lish, fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik;

o'z xizmat vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarga barham berish;

mijozning, kontragentning, fuqaroning muloqot darajasi, turi va uslubidan qat'i nazar xushmuomala, do'stona, hozirjavob bo'lishi kerak hamda unga nisbatan noto'g'ri aloqa qilish faktlariga sabrli bo'lishi kerak.

o'z xizmat faoliyatiga biror-bir ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga barham berish;

xalqlarning urf-odatlarini va an'analarni hurmat qilish, turli etnik, ijtimoiy guruhlar va konfessiyalarning madaniy hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko'maklashish;



o'zlarining xizmat vazifalarini vijdonan bajarishda shubha paydo qilishi mumkin bo'lgan hulq-atvordan o'zini tiyish, shuningdek, o'z obro'siga yoki Bankning nufuziga zarar yetkazishga olib keluvchi vaziyatlarga yo'l qo'ymaslik;

xizmat mavqeidan Bank, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta'sir ko'rsatish uchun foydalanmaslik;

Bankda xabarlarini va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariga rioya etish;

mijozlar (jismoniy shaxslar) bilan ularning muddati o'tgan qarzdorliklarini undirishda ular bilan bevosita va bilvosita adolatli o'zaro munosabatlarga kirishishda Markaziy banki Boshqaruvining 2025-yil 24-iyundagi 19/3-son qarori bilan tasdiqlangan "Jismoniy shaxslarning muddati o'tgan qarzdorliklarini undirishda ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga doir tavsiyalar"ga rioya qilish.

11. Siyosiy va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqlik, shuningdek, shaxsiy vajlar va boshqa subyektiv sabablar Bank xodimlarining ushbu qoidalarni buzish uchun asos bo'la olmaydi.

12. Bank xodimlari o'z rahbarini yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (yoki tuzilma rahbarini) yoxud tegishli huquqni muhofaza qilish organlarini ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida biror-bir shaxs/shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari shuningdek, Bankning boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lgan har qanday holatlari haqida xabardor kilishi shart.

13. Bank rahbari Bank xodimlarining qonunchilik talablarining buzilish faktlari to'g'risida murojaat qilganligi munosabati bilan yoxud bildirilgan fikr va murojaatdagi tanqidi uchun ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishiga yoki boshqacha shaklda ta'qib qilinishiga yo'l qo'ymasligini ta'minlashi kerak.

14. Bank xodimlari kasbiy faoliyati davomida o'zlariga ma'lum bo'lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta'minlash yuzasidan barcha choralarni ko'rishlari shart, ularning oshkor etilganligi uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

15. Bankning mansabdor shaxslari o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o'rnak bo'lishi, xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasiga kirmaydigan topshiriqlarni bajarilishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Bankning mansabdor shaxslari kadrlarni qarindoshlik, guruhbozlik, mahaliychilik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olishi lozim.

Bankning mansabdor shaxslari:

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va ularni boshqarish yuzasidan o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rishi;

korruptsiyaning oldini olish choralari ko'rishi;

xodimlarni samarali boshqarishi, o'ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag'larga ehtiyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart.

Bankning mansabdor shaxslari o'ziga bo'ysunuvchi xodimlarning xizmatdagi hulq-atvori tamoyillari va qoidalarini buzayotgan xatti-harakatlariga (harakatsizligiga) yo'l qo'yilmaslik choralari ko'rmaganligi uchun javob beradi.

16. Bank xodimlari o'zlarining xizmatdagi hulq-atvori bilan jamoada boshqa xodimlar bilan o'zaro ishchanlik va amaliy hamkorlikda ishlashlari lozim.

Bank xodimlari xushmuomala, iltifotli, odobli, e'tiborli, mijozlar va hamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart.

O'ziga bo'ysunuvchilarga va mijozlarga nisbatan qo'pollik qilmasligi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatish holatlariga yo'l qo'ymasligi lozim.

O'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida ish sharoitlari va xizmat tadbirlarining shakliga bog'liq holda xodimlarning tashqi ko'rinishi fuqarolarning Bankka nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga yordam berishi, umumiy qabul qilingan ish uslubiga muvofiq bo'lishi, rasmiyligi, vazminligi va tartibliligi bilan boshqalardan ajralib turishi kerak.

17. Bank xodimlari xizmatdan tashqari vaqtda umumiy qabul qilingan odob-ahloq meyorlariga rioya etishlari, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.


4-bob. Korruptsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik

18. Bank xodimlari korruptsiyani har qanday shakli va ko'rinishiga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi hamda xizmat mavqeidan shaxsiy yoki uchinchi shaxslar manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi (harakatsizligi) qat'iy taqiqlanadi.

Bank xodimlari korruptsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga faol ko'maklashishi, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq korruptsiyaga qarshi kurashish doir qoidalarda talab etilgan axborot va ma'lumotlarni taqdim etishlari shart.

19. Bank xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlik holatlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Bank xodimlarining shaxsiy manfaatdorligi ularning shaxsan o'zi yoki yaqin qarindoshlari, shuningdek, ularga yaqin yoki ishbilarmonlik munosabatlarida bo'ladigan boshqa shaxslar uchun har qanday naf ko'rish yoki afzalliklarga ega bo'lishni o'z ichiga oladi.



openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-122</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 202 <u>4</u> yil

Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, Bank xodimlari o'z rahbarini yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga ma'sul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (yoki tuzilma rahbarini) darhol xabardor qilishi kerak.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi ma'lumotni olgan rahbar bu to'qnashuvni oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.

Bank xodimlari o'z xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishlarida Bankka zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatni amalga oshirmasligi kerak.

Bank xodimlari o'z rahbarini hamda korrupsiyaga qarshi kurashishga ma'sul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (yoki tuzilma rahbarini) manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rish maqsadida yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etishi to'g'risida xabardor qilishi shart.

20. Bank xodimi lavozimga tayinlanayotganda va xizmat vazifalarini bajarayotganda o'zining xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorligi mavjudligi yoki mavjud bo'lishi imkoniyati to'g'risida ma'lum qilishi shart.

5-bob. Bank xodimlarining tashqi ko'rinishiga qo'yiladigan talablar

21. Bank xodimi Bank imidjiga mos keladigan ishbilarmonlik kiyinish odobiga rioya qilishi shart. Xodimning tashqi ko'rinishi kishining g'ashiga tegadigan yoki beparvo bo'lmasligi kerak. Xodimning ishbilarmonlik kiyinish odobiga rioya qilmasligi mehnat intizomining buzilishi hisoblanadi va intizomiy javobgarlikka sabab bo'lishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

22. Bank o'z xodimlarining xizmat vazifalarini bajarish bilan bog'liq tahdid, haqorat, tuhmat va qonunga xilof boshqa xatti-harakatlardan himoya qilishga mas'ul hisoblanadi.


23. Bank xodimlari jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishda faol ishtirok etadi.

24. Mazkur Odob-ahloq qoidalari talablarini buzgan Bank xodimlari va shaxslar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

25. Mazkur Odob-ahloq qoidalariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

26. Mazkur Odob-ahloq qoidalari bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

27. Ushbu Odob-ahloq qoidalarining alohida bandlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

The bottom of the page features several handwritten signatures in blue ink. To the right, there is a blue rectangular stamp with the text "Ro'yxatdan o'tkazildi" (Registered) at the top. Below this, it says "Ro'yxat raqami: E-122" (Registration number: E-122) and "Sana: 'N2' 22 oktabr 2022 yil" (Date: 'N2' 22 October 2022 year). The stamp is partially obscured by the signatures.

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“17” 10 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi)
Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining xodimlarining odoq-ahloq qoidalari (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning xodimlarining kasbiy odoq-axloqining umumiy tamoyillarini va o'z xizmat vazifasini bajarishdagi xulq-atvorining asosiy qoidalarini belgilab beradi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining bayonnomasi asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning

Yuridik boshqarmasi boshlig'i

S.I. Salimov